

**QARSHI MUHANDISLIK-IQTISODIYOT INSTITUTI HUZURIDAGI  
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
PhD.03/30.09.2020.T.111.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**BUXORO MUHANDISLIK-TEXNOLOGIYA INSTITUTI**

**MUZAFFAROV FIRDAVS FUZAYL O'G'LI**

**VERTIKAL O'QLI SHAMOL ENERGETIK QURILMASINI ISHLASH  
SAMARADORLIGINI OSHIRISH**

**05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi  
energiya qurilmalari**

**TEXNIKA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI  
AVTOREFERATI**

**Qarshi – 2024**

**Texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)  
по техническим наукам**

**Contents of the Dissertation Abstract of Philosophy of Doctor (PhD)  
on technical sciences**

**Muzaffarov Firdavs Fuzayl o‘g‘li**

Vertikal o‘qli shamol energetik qurilmasini ishlash samaradorligini  
oshirish..... 3

**Музаффаров Фирдавс Фузайл ўғли**

Повышение эффективности работы вертикально-осевой  
ветроэнергетической установки..... 23

**Muzaffarov Firdavs Fuzayl o‘g‘li**

Improving the efficiency of a vertical-axis wind power device..... 45

**E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati**

Список опубликованных работ  
List of published works..... 49

**QARSHI MUHANDISLIK-IQTISODIYOT INSTITUTI HUZURIDAGI  
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
PhD.03/30.09.2020.T.111.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**BUXORO MUHANDISLIK-TEXNOLOGIYA INSTITUTI**

**MUZAFFAROV FIRDAVS FUZAYL O'G'LI**

**VERTIKAL O'QLI SHAMOL ENERGETIK QURILMASINI ISHLASH  
SAMARADORLIGINI OSHIRISH**

**05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi  
energiya qurilmalari**

**TEXNIKA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI  
AVTOREFERATI**

**Qarshi – 2024**

**Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.2.PhD/T2898 raqam bilan ro'yxatga olingan.**

Dissertatsiya Buxoro muhandislik-texnologiya institutida bajarilgan.  
Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida ([www.qmii.uz](http://www.qmii.uz)) va «Ziyonet» Axborot ta'lim portalida ([www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Sadullayev Nasullo Nematovich**  
texnika fanlar doktori, professor

**Rasmiy opponentlar:**

**Toirov Olimjon Zuvurovich**  
texnika fanlar doktori, professor

**Xujakulov Saydulla Mirzayevich**  
texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent


**Yetakchi tashkilot:**

**Farg'ona politexnika instituti**

Dissertatsiya himoyasi Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti huzuridagi PhD.03/30.09.2020.T.111.03 raqamli Ilmiy kengashning 2024 yil "6" 04 soat 10<sup>00</sup> dagi majlisida bo'lib o'tadi. Manzil: 180100, Qarshi shahri Mustaqillik ko'chasi 225-uy. Tel/faks.: (75) 224-02-89; e-mail: [kiei\\_info@edu.uz](mailto:kiei_info@edu.uz) Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti majlislar zali.

Dissertatsiya bilan Qarshi muhandislik-iqtisodiyot institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (№ 99 raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 180100, Qarshi shahri, Mustaqillik ko'chasi, 225 uy. Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti. Tel/faks: (75) 224-02-89/224-13-95.

Dissertatsiya avtoreferati 2024 yil "25" 03 kuni tarqatildi.  
(2024 yil "25" 03 dagi № 20 raqamli reestr bayonnomasi).



**G'.N.Uzoqov**  
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash rasi, t.f.d., professor

**X.A.Davlonov**  
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash ilmiy kotibi, t.f.d., (PhD)

**B.Urishev**  
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar rasi, t.f.d., professor

## KIRISH (falsafa doktori (Phd) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahonda elektr energiyasiga bo'lgan ehtiyojning ortib borishi qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan keng foydalanishni taqozo etmoqda. 2024 yil dunyoda elektr energiya ishlab chiqarish miqdorining 33,5 foizi qayta tiklanuvchi energiya manbalari jumladan, 8,6 foizi shamol elektr stansiyalari hissasiga to'g'ri kelmoqda<sup>1</sup>. Ayniqsa, markazlashgan elektr ta'minotidan uzoqda joylashgan kichik quvvatli avtonom iste'molchilarni elektr energiyasi bilan ta'minlashda shamol energiyasi manbalaridan foydalanish ustuvorlik kasb etmoqda. Xalqaro qayta tiklanuvchi energiya agentligining shamol energetikasini rivojlantirish konsepsiyasiga ko'ra, 2050-yilga borib shamol energetikasi dunyo energiya ehtiyojining 35 foizini tashkil etadi<sup>2</sup>. Bu borada jumladan, vertikal o'qli shamol turbinalarining optimal konstruksiyalarini ishlab chiqish, yurgizish momentini oshirish, aerodinamik parametrlarini aniqlash, energetik ko'rsatkichlarini baholash va modellashtirish asosida shamol energiyasidan foydalanish koeffitsiyentini oshirish muammolariga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Jahonda kichik tezlikli shamol oqimlaridan foydalanish unumdorligini oshirishda vertikal o'qli shamol energetik qurilmalarini ishlab chiqish, energetik, aerodinamik va konstruktiv parametrlarini asoslash, shuningdek ishlash samaradorligini oshirishga doir ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Bu borada kuchsiz shamol oqimli hududlarning iqlim sharoitlariga moslashtirilgan vertikal o'qli shamol energetik qurilmalarini ishlab chiqish, konstruktiv hamda ish rejim parametrlarini tahlil qilish, shamol energiyasidan foydalanish samaradorligini oshirishda turbinaning optimal parametrlarini aniqlash hamda takomillashtirilgan qurilmalarni ekspluatatsiya qilishga katta e'tibor berilmoqda.

Respublikamizda energetika sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar negizida energiya ta'minotini yaxshilash va sohadagi mavjud muammolarni hal qilish masalasi dolzarb hisoblanadi. Bu yo'nalishda shamol energiyasidan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish, jumladan, hududlar shamol energiyasining texnik va yalpi potensialini baholash va shunga muvofiq shamol energetik qurilmalarini ishlab chiqish bo'yicha tizimli ishlar amalga oshirilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 16 fevraldagi PQ-57-son "2023-yilda qayta tiklanuvchi energiya manbalarini va energiya tejoychi texnologiyalarni joriy etishni jadallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarorida "...2023-yil uchun 2100 MVt quvvatli yirik quyosh va shamol elektr stansiyalarini ishga tushirish..." bo'yicha vazifalar belgilab berilgan. Mazkur vazifalarni amalga oshirishda, mintaqaning iqlim sharoitlari, shamol energiyasi potensialini hisobga olib, vertikal o'qli shamol energetik qurilmasini yaratish hamda uning ilmiy-texnik yechimlarini ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasining 2019 yil 21 maydagi O'RQ-539-son "Qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish to'g'risida"gi Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 9 sentabrdagi PF-220-son "Energiya tejoychi

<sup>1</sup> <https://www.iea.org/energy-system/renewables>

<sup>2</sup> <https://www.irena.org/publications/2019/Oct/Future-of-wind>

texnologiyalarni joriy qilish va kichik quvvatli qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmoni, 2018 yil 28 apreldagi PQ-3687-son "Qayta tiklanadigan energiya manbalari sohasida investitsiya loyihalarini amalga oshirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2019 yil 22 avgustdagi PQ-4422-son "Iqtisodiyot tarmoqlari va ijtimoiy sohaning energiya samaradorligini oshirish, energiya tejavchi texnologiyalarni joriy etish va qayta tiklanadigan energiya manbalarini rivojlantirishning tezkor chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublikada fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi.** Dissertatsiya ishi bo'yicha tadqiqotlar fan va texnologiyalar rivojlanishining IV. "Qayta tiklanuvchan energiya manbalaridan foydalanish usullarini rivojlantirish, nanotexnologiyalar, fotonika va boshqa zamonaviy ilg'or texnologiyalar asosida qurilmalar va texnologiyalarni yaratish" ustuvor yo'nalishiga mos keladi.

**Muammoning o'rganilganlik darajasi.** Qayta tiklanuvchi energiya manbalari orasida shamol energiyasidan foydalanish dolzarb ahamiyat kasb etganligi sababli dunyo miqyosida, shu jumladan, respublikamizda ham bu sohada ko'plab ilmiy tadqiqotlar o'tkazilgan. Qayta tiklanuvchi energiya manbalariga asoslangan energetik qurilmalar, ya'ni shamol turbinalarining texnik va energetik parametrlarini yaxshilash bo'yicha J.V.Akva, A.K.Ravi, Marko Kasini, S.Bruska, J.M.Darrius, R.Ansaf, Ch.Shi, Y.Ch.Miao, S.Savonius, E.M.Fatayev, E.V.Solomin va boshqa xorijlik olimlar hamda akademik Q.R.Allayev, akademik R.A.Zahidov, O'.A.Tadjiyev, O.Z.Toirov, U.G'.Dehqonov, A.B.Safarov, Sh.N.Ne'matov kabi mamlakatimiz olimlari tomonidan samarali ilmiy izlanishlar olib borilgan. Iqlim sharoitlariga mos, mexanik nuqtayi nazardan mustahkam, turli konstruksiyadagi, energetik jihatdan samarador shamol agregatlarini yaratish bo'yicha muvaffaqiyatli tadqiqot natijalariga erishilgan. Shunga qaramasdan, past potentsialli shamol resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirish imkonini beruvchi vertikal o'qli shamol energetik qurilmalarini tadqiq qilish bo'yicha olib borilgan ilmiy izlanishlar yetarli emas.

**Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi.** Dissertatsiya tadqiqoti Buxoro muhandislik-texnologiya institutining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq ILM-20215001 "Kichik quvvatli iste'molchilar uchun O'zbekiston iqlimiy sharoitlarida samarador ishlovchi shamol energetik qurilmasini yaratish" (2021–2022) loyihasi doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** vertikal o'qli shamol energetik qurilmasini ishlab chiqish va samaradorligini oshirishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

vertikal o'qli shamol energetik qurilmalarini ishlab chiqish va kichik tezlikli shamol oqimlarida ishlash samaradorligini oshirish bo'yicha olib borilgan ilmiy tadqiqotlarni tahlil qilish;

kichik tezlikli shamol oqimlarida samarador ishlovchi, shamol g'ildiragi parraklari kompozit materiallardan tayyorlangan vertikal o'qli shamol energetik qurilmasini ishlab chiqish;

vertikal o'qli shamol energetik qurilmasining mexanik va energetik parametrlarining shamol oqimi tezligiga, qurilmaning konstruktiv parametrlari va aerodinamik kuchlarga bog'liqligini ifodalovchi matematik modelini ishlab chiqish;

shamol energetik qurilmasi parraging optimal aerodinamik shakli va boshlang'ich momentni oshirish imkoniga ega bo'lgan yordamchi yuzalarning maqbul geometrik o'lchamlarini Ansys Fluent va Qblade dasturlarida aniqlash;

vertikal o'qli shamol energetik qurilmasining shamol energiyasidan foydalanish va ildamlilik koeffitsiyentlarining turli shamol oqimi tezliklaridagi optimal qiymatini aniqlash imkonini beradigan model va algoritmlarini ishlab chiqish;

vertikal o'qli shamol energetik qurilmasining texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlarini aniqlash va joriy etishdagi iqtisodiy samaradorligini baholash.

**Tadqiqotning obyekti** sifatida kichik quvvatli iste'molchilar uchun O'zbekiston iqlim sharoitlariga moslashtirilgan vertikal o'qli shamol energetik qurilmasi va uning texnologik ish jarayoni olingan.

**Tadqiqotning predmeti** kichik tezlikli shamol oqimlarida ishlovchi vertikal o'qli shamol energetik qurilmalari, turbina parraklarining optimal shakli va konstruksiyasini aniqlash qonuniyatlari, mexanik energiyani elektr energiyasiga aylantirish jarayonlarini tadqiq qilishdan iborat.

**Tadqiqot usullari.** Tadqiqot jarayonida shamol energetik qurilmalarini matematik modellashtirish, tajriba natijalarni statistik qayta ishlash, shamol energetik qurilmasining imitatsion modelini yaratish, eksperimentni rejalashtirish va instrumental o'lchash usullaridan foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

ilk marotaba mahalliy va kompozit materiallardan tayyorlangan shamol g'ildiragi parraklari tashqi sirti  $\alpha$  burchak ostida joylashtirilgan hamda vertikal plastinkalar bilan qoplangan, parraklarni vtulka bilan bog'lab turuvchi tayanchlarda statik holatda ochiq turadigan yordamchi yuzalar o'rnatilgan, kichik tezlikli shamol oqimlarida ishlash samaradorligi 3...8 foizgacha oshirilgan vertikal o'qli shamol energetik qurilmasi ishlab chiqilgan (№ FAP 02138, 2022 y.);

shamol oqimi tezligining o'zgarishi, turbinaning diametri, parraklarining soni va balandligi, aerodinamik sirt uzunligi, parraklarning aylana urinmasiga nisbatan og'ishi va parraklarga ta'sir ko'rsatuvchi ko'tarish va tortish kuchlarini hisobga olgan holda, balans tenglamalari asosida shamol energetik qurilmasining shamol energiyasidan foydalanish koeffitsiyentini hisoblash imkonini beradigan matematik model ishlab chiqilgan;

shamol turbinasining konstruktiv va yordamchi yuzalarining geometrik o'lchamlari, unga ta'sir ko'rsatuvchi ko'tarish hamda tortish kuchlari, parraklar soni, shamol oqimining parrakka urilish burchagi, shamol energiyasidan foydalanish koeffitsiyentini optimal qiymatlarini hisobga olgan holda, konstruksiyasi ishlab chiqilgan;

kichik tezlikli shamol oqimlarida ham ishonchli ishlaydigan vertikal o'qli shamol energetik qurilmasining parraklari soni, shamol oqimining tezligini hisobga olgan holda shamol energiyasidan foydalanish va ildamlilik koeffitsiyentlarining egri chiziqli qonuniyat asosida o'zgarishini ifodalaydigan empirik tenglama olingan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

Buxoro viloyatining chekka hududlardagi markaziy elektr tarmog'iga ulanmagan kichik quvvatli iste'molchilar uchun mahalliy xom-ashyodan tayyorlanib, yurgizish momenti oshirilgan yengil vaznli, samarador shamol energetik qurilmasi ishlab chiqilgan;

shamol turbinasining kichik shamol tezliklarida ham samarali ishlashi ta'minlangan hamda qurilmaning optimal konstruktiv parametrlarini tanlash dasturi yaratilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi.** Tadqiqot ishlarini zamonaviy usul va o'lchash vositalaridan foydalangan holda o'tkazilganligi, eksperimental tadqiqot natijalarini tekshirishda ishonchli hamda sinalgan modellashtirish usullaridan foydalanilganligi, tajribalarning tabiiy sharoitda o'tkazilganligi, tadqiqotlar natijasida ishlab chiqilgan shamol energetik qurilmasining amaliyotga joriy etilganligi bilan asoslanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati vertikal o'qli shamol turbinasining parraklarini optimallashtirish orqali kichik tezlikli shamol oqimlarida samarador ishlovchi vertikal o'qli shamol turbinasining matematik modeli ishlab chiqilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati kichik tezlikli shamol oqimlarida samarador ishlovchi vertikal o'qli shamol turbinasining konstruksiyasi ishlab chiqilganligi va taklif etilgan qurilma CO<sub>2</sub> tashlamalari miqdorini yiliga 1225 kg gacha kamaytirishga xizmat qilishi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Vertikal o'qli shamol energetik qurilmasining ishlash samaradorligini oshirish hamda joriy etish bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

kichik tezlikli shamol oqimlarida samarali ishlashga moslashtirilgan vertikal o'qli shamol energetik qurilmasi uchun O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi Intellektual mulk agentligining foydali modeliga patent olingan (№ FAP02138, 2022-yil 31-oktabr). Natijada, qurilmaning shamol energiyasidan foydalanish koeffitsiyenti ( $C_p$ )ni 3...8 foizgacha oshirish imkoniyati yaratilgan;

kichik tezlikli shamol oqimlarida ishlovchi vertikal o'qli shamol energetik qurilmasining konstruksiyasi takomillashtirilgan (O'zbekiston Respublikasi Energetika vazirligining 2023-yil 18-oktabrdagi № 04-13-6286-sonli ma'lumotnomasi). Natijada, shamol tezligi 2,5-12 m/s bo'lgan oraliqda ham elektr energiyasini ishlab chiqarish 3,1 foizgacha oshirish imkoniyati yaratilib, energiya ta'minoti uzluksizligini ta'minlashga erishilgan;

ishlab chiqilgan vertikal o'qli shamol energetik qurilmasi Buxoro viloyati Romitan tumanidagi "Amirxon bog'bon" MChJda joriy etilgan (O'zbekiston Respublikasi Energetika vazirligining 2023-yil 18-oktabrdagi № 04-13-6286-sonli ma'lumotnomasi). Natijada, ichki yonuv generatoriga nisbatan yillik 75,8 million so'm iqtisodiy samaradorlikka erishilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatyasi.** Tadqiqot natijalari 6 ta ilmiy-amaliy anjumanlarda, jumladan 4 ta xalqaro va 2 ta respublika anjumanlarida muhokamadan o'tgan.

**Tadqiqot natijalarning e'lon qilinganligi.** Dissertatsiya ishi bo'yicha jami 17 ta ilmiy ish chop etilgan bo'lib, shu jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalarining asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya qilingan 3 ta xalqaro va 7 ta respublika jurnallarida ilmiy maqolalar nashr qilingan hamda O'zbekiston Respublikasi Intellektual mulk agentligi tomonidan 1 ta foydali modelga patent va EHM dasturiga mualliflik guvohnomasi olingan.


**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya tarkibi kirish, to'rtta bob, umumiy xulosalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiya hajmi 119 betni tashkil etadi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI


**Kirish** qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi hamda dissertatsiya mavzusining zaruriyati asoslangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari hamda respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mos ekanligi ko'rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari keltirib o'tilgan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilish, ilmiy ishlarni chop etganlik haqida ma'lumotlar va dissertatsiyaning tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Shamol turbinalaridan foydalanishdagi muammo va kamchiliklar hamda ularning istiqbolli yechimlari”** nomli birinchi bobida jahonda va O'zbekistonda shamol energiyasidan foydalanishning hozirgi holati va mavjud shamol energetikasidan foydalanish imkoniyatlari tahlili keltirilgan. Turli konstruksiyali shamol turbinalari tahlil qilinib taqqoslangan, ularning optimal geometrik ko'rsatkichlari taqdim etilgan. O'zgaruvchan va kuchsiz shamol oqimlarida ishlovchi shamol energetik qurilmalari bo'yicha xorijda va respublikamizda olib borilgan tadqiqotlarning tahlil natijalari taqdim etilgan, hududning shamol salohiyati baholangan. Vertikal o'qli shamol turbinalarining samaradorligiga ta'sir ko'rsatuvchi omillar o'rganilgan, yurgizish momentini oshirish uchun qilingan tadqiqot ishlari tahlil qilingan, tadqiqotning maqsad va vazifalari belgilab olingan. Respublikamizning iqlim sharoitlariga moslashtirilgan vertikal o'qli H-simon turbinalarni ishlab chiqarishni mahalliyashtirish, turbina vaznini yengillashtirish, yurgizish momentini oshirish, geometrik o'lchamlarini optimallashtirish kabi vazifalarni hal qilish orqali qurilmaning samaradorligini barqarorlashtirish mumkinligi asoslab berilgan.

Dissertatsiyaning **“Vertikal o'qli shamol turbinasining konstruksiyasi, parraklarining aerodinamik shakli va matematik modeli”** nomli ikkinchi bobida vertikal o'qli shamol turbinasining parraklariga ta'sir ko'rsatuvchi kattaliklar aerodinamika nuqtayi nazaridan tahlil qilingan. Standart ko'rinishdagi aerodinamik sirtlarning kompyuter modelidagi tahlillari keltirilgan (1, 2-rasmlar).




**1-rasm. NACA 0012, NACA 0015, NACA 2414, NACA 4412, NACA 633218 aerodinamik sirtlarning umumiy ko‘rinishi.**



**2-rasm. NACA 0012, NACA 0015, NACA 2414, NACA 4412, NACA 633218 aerodinamik sirtlar parametrlarining o‘zaro taqqoslanishi.**

Mazkur bobda turbinaning yurgizish momentini oshirish uchun kiritilgan konstruktiv o‘zgartirishlar keltirilgan va standart konstruksiyalar bilan o‘zaro taqqoslangan (3-4 rasmlar).



**3-rasm. Taklif etilayotgan va standart ko‘rinishdagi turbinalar parraginging umumiy ko‘rinishi.**




Bunda  $V_0$  – shamolning turbinagacha tezligi;  $V_{bur}$  – burchakli tezlik;  $V_{nis}$  – nisbiy tezlik;  $V_{um}$  – umumiy tezlik;  $V_{nor}$  – normal tezlik;  $V_{nat}$  – natijaviy tezlik;  $F_K$  – ko‘taruvchi kuch;  $F_T$  – tortuvchi kuch.

Ishlab chiqilgan qurilma uchun matematik model quyidagicha:

$$\left\{ \begin{array}{l} \lambda_{opt} = \frac{4 \cdot \pi}{N} = \frac{\omega \cdot R}{V_{um}}; \\ J\theta(t) = T_a(t) - T_q(t); \\ P_{mex} = T \cdot \omega = \frac{\rho \cdot c^1 \cdot h \cdot V_{um}^2 \cdot R \cdot n_{ayl}}{15} \cdot \left( C_K \cdot \int_0^{2\pi} \sin \arctg\left(\frac{\sin \theta}{\lambda + \cos \theta}\right)(\theta) - C_T \cdot \int_0^{2\pi} \cos \arctg\left(\frac{\sin \theta}{\lambda + \cos \theta}\right)(\theta) \right); \\ C_P = \frac{P_{mex}}{1/2 \cdot \rho \cdot V_0^3 \cdot A} = \frac{2 \cdot c^1 \cdot V_{um}^2 \cdot n_{ayl} \cdot \left( C_K \cdot \int_0^{2\pi} \sin \arctg\left(\frac{\sin \theta}{\lambda + \cos \theta}\right)(\theta) - C_T \cdot \int_0^{2\pi} \cos \arctg\left(\frac{\sin \theta}{\lambda + \cos \theta}\right)(\theta) \right)}{15 \cdot V_0^3}. \end{array} \right. \quad (1)$$

Bu yerda  $\lambda_{opt}$  – optimal ildamlik koeffitsiyenti,  $N$  – parraklar soni,  $T_a(t)$  – aerodinamik harakatlantiruvchi kuch funksiyasi,  $T_q(t)$  – qarshilik qiluvchi kuch funksiyasi,  $J$  – turbinaning umumiy inersiya momenti,  $\theta$  – turbina parraginging burilgan burchagi,  $C_K$ ,  $C_T$  – ko‘tarish va tortish koeffitsiyentlari,  $c^1$  – parrakning tashqi sirti uzunligi,  $R$  – turbinaning radiusi,  $h$  – turbinaning bo‘yi,  $n_{ayl}$  – turbinaning aylanish tezligi,  $\rho$  – havoning zichligi.



**6-rasm. Vertikal o‘qli shamol turbinasi mexanik quvvatini hisoblashning blok sxemasi.**


Vertikal o‘qli shamol turbinasining mexanik quvvatini hisoblashning analitik modeliga ta’sir ko‘rsatuvchi parametrlarning blok-sxematik ko‘rinishi 6-rasmda berilgan.

Demak, 1-ifodada keltirilganidek, shamol turbinasining mexanik quvvatini parrakning tashqi sirti yuzasini oshirish orqali kuchaytirishimiz mumkin. 1-ifodada keltirilgan tenglikni Matlab dasturiga kiritish orqali quyidagi model ko‘rinishini olamiz (7-rasm). Matlab dasturida quvvatni hisoblashdagi miqdorlar sifatida turbinaning haqiqiy o‘lchamlari kiritilgan, ya’ni  $c = 30 \text{ sm}$ ,  $h = 2 \text{ m}$ ,  $R = 0,7 \text{ m}$  kabi miqdorlar uchun hisoblanilgan.



**7-rasm. Matlab amaliy paketida qurilgan shamol energetik qurilmasi modeli.**

Dissertatsiyaning “Vertikal o‘qli turbina konstruksiyasini ishlab chiqish va uning parametrlarini asoslash” deb nomlangan uchinchi bobida shamol turbini va uning parraklari Qblade, Ansys kabi dasturlar orqali simulyatsion sinovdan o‘tkazilgan (8-rasm).




**8-rasm. Notekis sirtning a) NACA 4412 sirtining b) tezlik xarakteristikalari.**

Shamol turbini parragining samaradorligi tepa qismdagi ko‘k rangli sohaning kengligi bilan xarakterlanadi. 8-rasmdagi tasvirdan notekis yuzali sirtning parametrlari silliq yuzali sirtga nisbatan yaxshiroq ekanini ko‘rishimiz mumkin, lekin ushbu egriliklarning optimal shaklini aniqlashimiz lozim. Notekisliklarning soni va chuqurligining me’yordan farq qilishi parrak atrofida turbulentslikni yuzaga keltirib, turbina samaradorligiga aks ta’sir ko‘rsatadi. Shu sababli, Ansys dasturi yordamida eng yaxshi ko‘rsatkichlarni qayd etgan uchta parrak tanlab olingan (9-rasm).

NACA 4412  
(prototip)


1-variant

2-variant




**9-rasm. Tanlab olingan aerodinamik sirtlarning umumiy ko‘rinishi.**

Ushbu sirtlarning aerodinamikaga taalluqli bo‘lgan koeffitsiyentlari aniqlandi va grafiklari qurildi (10, 11-rasmlar).




**10-rasm. Ko‘tarish koeffitsiyentining shamol oqimining kelish burchagiga bog‘liqlik grafiklari.**



**11-rasm. Tortish koeffitsiyentining shamol oqimining kelish burchagiga bog‘liqlik grafiklari.**


10-11-rasmlardagi xarakteristikalar Ansys dasturining hisoblashlari asosida qurildi, taklif etilgan shakl uchun ko‘tarish va tortish kuchlarining qiymati hamda parraklarning optimal o‘rnatilish burchagi aniqlandi (10, 11-rasmlar). Bunda shamol oqimining kelishi  $\angle 0^{\circ} \div \angle 30^{\circ}$  oraliqdagi qiymatlar uchun hisoblangan. Belgilab olingan vazifalardan kelib chiqqan holda turbinaning optimal parametrlarini aniqlash uslubiyoti va algoritmi ishlab chiqildi (12-rasm):





**13b-Takomillashtirilgan vertikal o‘qli shamol turbinasining Ansys dasturidagi ko‘rinishi.**

Mazkur turbina Qblade dasturi orqali simulyatsion tahlillardan o‘tkazilgan (14-rasm).



**14-rasm. Qblade dasturi yordamida olingan grafiklar.**

10, 11-rasmlardan ko‘tarish koeffitsiyentining keng oraliqda o‘zgarishini ko‘rishimiz mumkin, ya’ni turli burchak ostida parrakka ta’sir ko‘rsatuvchi oqimning turbulentslik xususiyati bir xil bo‘lmaydi, natijada ta’sir qiluvchi qiymatlar o‘zgaradi. Simulyatsiya jarayoni natijalariga ko‘ra, turbina parragini o‘rnatish uchun optimal burchak  $10^0$  ekanligi aniqlandi.

Uchta sirtni taqqoslash orqali biz yuqori aerodinamik parametrlari yaxshi bo‘lgan ikkinchi variantni yakuniy shakl sifatida qabul qilishimiz mumkin.

Dissertatsiyaning **“Yurgizish momenti oshirilgan shamol energetik qurilmasining eksperimental tadqiqoti”** nomli to‘rtinchi bobida ishlab chiqilgan shamol energetik qurilmasini amaliyotda joriy etish bo‘yicha ma’lumotlar va iqtisodiy samaradorlik ko‘rsatkichlari keltirilgan.


1-jadvalda shamol energetik qurilmasining (ShEQ) turli tezliklarda nazariy hisoblashlar va eksperimental tadqiqot natijalari taqqoslangan va o‘rtacha farq 1,5 foiz ekanligi aniqlanilgan. Qurilmalar quvvatining energetik samaradorligi o‘rta kvadratik usulda o‘zaro taqqoslandi. Unga ko‘ra, ishlab chiqilgan qurilmaning samaradorligi yaqin analog hisoblanuvchi Xitoyda ishlab chiqarilgan “P1000 AB”

modelga nisbatan 3,1 foiz, silliq yuzali turbinaga nisbatan 9,8 foiz yuqori ekanligi aniqlandi (15-rasm).

1-jadval.

**Taklif etilgan ShEQning eksperimental va nazariy quvvatlari.**

№	Shamol tezligi [m/s]	Taklif etilgan ShEQning eksperimental quvvati [Vt]	Taklif etilgan ShEQning nazariy hisoblashlardagi quvvati [Vt]	P1000AB markali qurilmaning quvvati [Vt]	Silliq yuzali ShEQning quvvati [Vt]
1	3,55	18	7,722443926	15,8	14,3
2	3,9	18,8	12,81533519	16,8	16,4
3	4,02	21	17,32958698	18,9	18,3
4	4,4	25	23,3557588	19,8	19,8
5	5	34	34,46835714	20,8	20,8
6	5,4	37	48,57970256	22,2	20,4
7	5,6	44	54,64689937	24,8	23,0
8	6.01	55	67,09169397	30,9	29,9
9	6,4	64,7	80,00335481	38,3	36,1
10	6,5	87	91,42253004	45,9	67,9
11	7,0	113	118,226465	94,4	92,0
12	7,5	147	144,3362455	124	119,0
13	8	186	198,5377371	160,6	156,5
14	8,6	231,6	267,6743678	205,5	199,0
15	9,1	286	309,2185042	259,8	250,5
16	9,7	348	367,5544753	344,8	313,4
17	10	427,5	417,4501031	401,9	390
18	10,6	597	507,7755819	561,4	543,4
19	11,2	767	581,2988856	721,2	700,2
20	11,8	815	674,5786857	810,1	741,7
21	12	865	708,6694228	849,16	786,14
22	12,6	866	796,5085841	849,19	789,16
23	13	866	867,300462	849,2	788,2
24	14	866,02	1024,629363	849,21	788,27




**15-rasm. Shamol turbinalarining quvvat egri chiziqlari.**

Taqdqiqot ishlarida taklif etilgan qurilmaning eksperiment natijalarini qayta ishlash va ularni o‘zaro bog‘lash muhim sanaladi. Shu bois mazkur qurilmaning

$c_p$ ,  $\lambda$  shamol energiyasidan foydalanish va ildamlilik koeffitsiyentlarining eksperimental natijalari olingan va bog‘liqlik tenglamasi aniqlangan.

$$c_p = 0,194802 - 0,199106 \cdot \sin\left(\frac{180}{\pi} \cdot (0,983386 \cdot \lambda + 1,01767)\right) \quad (2)$$



**16-rasm. Shamol energiyasidan foydalanish va ildamlilik koeffitsiyentlarining bog‘liqlik grafiklari.**

Eksperimental tadqiqot natijalariga ko‘ra qurilmaning ildamlilik koeffitsiyenti ( $\lambda=3\div 4,5$ ) bo‘lganda, shamol energiyasidan foydalanish koeffitsiyenti yuqori bo‘lgan (16-rasm).

ShEQ tajriba sinov maqsadida Buxoro viloyati Romitan tumani Fayzi Qurbon mahallasining “Amirxon bog‘bon” MChJga qarashli issiqxonalar tizimi va tovuqchilik fermasiga o‘rnatildi. Turbinani tayyorlash jarayonida tannarxini arzonlashtirish uchun (maxsus tola sifatida) mahalliy mahsulotlar (ot, echki juni tolas, lavsan) matolaridan foydalanildi. Bu mahsulotlarning mexanik mustahkamligi aniqlandi (2-jadval).

**2-jadval.**

**Turbina parraklarini tayyorlashda foydalaniladigan mahsulotlarning mexanik mustahkamligi.**

№	Tola turi	Mustahkamlik chegarasi [Mpa]	Kuchlanish moduli [Gpa]	Zichligi [g/sm <sup>3</sup> ]
1	Uglerod	2000-5000	200-600	1,8
2	Shisha tola	1950-3500	70-80	2,55
3	Shisha tolali mato	4500-4700	75-90	2,5
4	Kevlar matosi	3000-3150	63-67	1,4
5	Bazalt	2800-3100	80-90	2,6-2,7
6	Zig‘ir	400-600	12-25	1,2-1,5
7	Kanop	300-700	20-70	1,3-1,5
8	Sisal	350-700	7-22	1,4-1,5
9	Gabardin mato	150-250	10-20	1,1-1,2
10	Lavsan matosi	350-780	20-30	1,3
11	Pilla (tola)	550-650	4-6	1,2
12	Echki juni (tola)	700-900	30-32	1,3
13	Ot yoli (tola)	800-1000	35-38	1,4

Turbinani tayyorlashda foydalaniladigan maxsus eritmalarning konsentratsiyasi aniqlandi (3-jadval).

**3-jadval.**

**Turbina parraklari va tayanchlariga sarflaniladigan shisha tolali xom-ashyo miqdori.**

<b>Suyuqlik Shisha tola</b>	<b>Poliefir smola [kg]</b>	<b>Mustahkam qotishini ta'minlovchi eritma [kg]</b>	<b>Tez qotishini ta'minlovchi eritma [kg]</b>
1 m <sup>2</sup> tola (300 gr/m <sup>2</sup> )	2,4	0,096	0,048
1 m <sup>2</sup> mato (285 gr/m <sup>2</sup> )	-	-	-


Mazkur mahsulotlar va suyuqliklardan foydalanilgan holda 1 [kVt] quvvatli ShEQ yaratildi (17-18 rasm).



**17-rasm. Mahalliy tolalarni sinash va bu tolalardan foydalanib turbina qismlarini tayyorlash jarayoni.**




**18-rasm. Tashqi sirti vertikal qiya plastinkalar bilan qoplangan ShEQ (1kVt).**



**19-rasm. 1 yil mobaynida shamol tezligining o'zgarish dinamikasi.**

ShEQ o'rnatiladigan hududning shamol salohiyati o'rganildi, 10 metr balandlikda shamolning bir yillik o'rtacha tezligi 4,311703 m/s ni tashkil etdi (19-rasm).



**20-rasm. Taklif etilgan 1 kVtli qurilmaning 6 oy mobaynida ishlab chiqargan elektr energiyasi miqdori.**

Shamol tezligi 1 yil mobaynida, qurilmaning quvvati 6 oy davomida o'lchandi (19-20 rasmlar), unga ko'ra kuz faslida ishlab chiqarilgan elektr energiya yozdagiga nisbatan 15 foizga ko'p ekanligi aniqlandi.

Yuqorida aniqlangan ma'lumotlar asosida, ishlab chiqarilgan shamol energetik qurilmasi, dizel generatori va elektr tarmog'ini olib kelishdagi iqtisodiy

samaradorlik ko'rsatkichlari taqqoslangan (4-jadval).

4-jadval.

**Qurilmalarni texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlarini taqqoslash.**

№	Parametrlar	ShEQ		Prototip		Dizel generatori		Elektr tarmog'i
				Ropate c Maxi 6kW	P1000 AB			
1	O'rnatilgan quvvat [kVt]	6	1	6	1	6	1	-
2	Elektr energiyasini keltirishdagi tarmoq xarajatlari [mln. so'm]	-		-	-	-	-	225
3	Qurilmaning balansdagi narxi [mln. so'm]	45	10,33	81,2	31	8	3,28	-
4	Bir yilda ishlab chiqariladigan o'rtacha elektr energiyasi miqdori [kVtsoat]	9250	1550	8980	1505	9250	1550	-
5	Yoqilg'i xarajatlari [mln. so'm]	-		-		25,54	4,04	-
6	Amortizatsiyaga ajratmalar [mln. so'm]	1,305	0,3	2,355	0,9	0,232	0,088	7,46
7	Joriy ta'mirlash xarajatlari [mln. so'm]	1,35	0,31	2,436	0,93	0,24	0,098	2,057
8	Ekspluatatsiya xarajatlari [mln. so'm]	2,665	0,61	4,791	1,83	26,02	4,226	9,517
9	Elektr energiyasi narxi [so'm]	288	393	533	1216	2813	2730	-

Jahonda bugungi kunda shamol energetik qurilmalarining samaradorligi bo'yicha loyihalarni baholashda "Sof diskontlangan foyda" uslubiyotidan keng foydalaniladi. Bunda loyihaning barcha xarajatlari va kelgusida olinadigan foyda loyiha ko'rilayotgan vaqt qiymatiga nisbatan hisoblaniladi.

ShEQni Buxoro viloyati Romitan tumanidagi issiqxona hududida joriy etishning iqtisodiy samaradorlik ko'rsatkichlari 5-jadvalda keltirilgan.

**Taklif etilgan va prototip qurilmalarni joriy etishdagi iqtisodiy samaradorlik.**

Ko'rsatkichlar	ShEQ	Prototip (ShEQ)
Sof joriy foyda [mln. so'm]	75,8	34
Foydaning ichki me'yori, %	37	67
Foyda indeksi	2,68	1,33
Statik qoplash muddati, yil	2,175	4,37
Dinamik qoplash muddati, yil	2,94	7,83

**XULOSA**

“Vertikal o‘qli shamol energetik qurilmasini ishlash samaradorligini oshirish” mavzusi bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlar natijasida quyidagi xulosalar shakllantirildi:

1. Buxoro viloyatining shamol salohiyatini baholash maqsadida eksperimental tadqiqotlar o‘tkazildi. Unga ko‘ra, kuchsiz shamol oqimlari ( $2,5 \div 8$  m/s) uchun hududda vertikal o‘qli turbinalardan foydalanish samarali ekanligi asoslandi.

2. Vertikal o‘qli shamol turbinasi samaradorligiga ta‘sir ko‘rsatuvchi faktorlar o‘rganildi, kichik quvvatli va avtonom iste‘molchilar uchun mintaqa iqlim xususiyatlariga moslashtirilgan shamol energetik qurilmasining tajriba-sinov namunasi hamda turbinaning geometrik o‘lchamlarini optimallashtirish algoritmi yaratildi.

3. Mahalliy mahsulotlardan foydalanib tayyorlangan vertikal o‘qli shamol turbinasining konstruksiyasi takomillashtirilib, shamol energiyasidan foydalanish samaradorligi 3,1 foizga oshirildi va foydali modelga patent guvohnomasi olindi.

4. Ishlab chiqilgan shamol energetik qurilmasida olingan tajriba natijalari umumlashtirilib, turbinaning shamol energiyasidan foydalanish koeffitsiyenti qiymatini aniqlash uchun empirik tenglama ishlab chiqildi.

5. Taklif etilgan shamol turbinasi parraklari uchun ko‘tarish va tortish koeffitsiyentlarining miqdori  $\alpha \in [0^{\circ}; 30^{\circ}]$  burchaklar intervalida Ansys, Qblade daturlaridan foydalanilgan holda o‘rganilib, turbina simulyatsiya qilindi. Aerodinamik sirt shaklining optimal varianti tanlandi va maqbul o‘rnatish burchagi  $10^{\circ}$  ekanligi aniqlandi.

6. Shamol energetik qurilmasi mahalliy mahsulotlardan foydalanib tayyorlandi. Natijada, xorijdan import qilishdagi transport xarajatlarining kamayishi evaziga tannarxi sezilarli kamaydi. Turbina qismini tayyorlash uchun xom-ashyo materiallarining konsentratsiya miqdori  $1 \text{ m}^2$  shisha tola uchun mustahkam qotishni ta‘minlovchi eritma 0,096 kg, tez qotishni ta‘minlovchi eritma 0,048 kg ekanligi aniqlandi.

7. Quvvati 6 kVt bo‘lgan shamol energetik qurilmasining iqtisodiy samaradorligi “Sof diskontlangan foyda” uslubiyotida baholandi va yillik foyda 75,8 million so‘m ekanligi aniqlandi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ PhD.03/30.09.2020.Т.111.03 ПО  
ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ КАРШИНСКОМ  
ИНЖЕНЕРНО-ЭКОНОМИЧЕСКОМ ИНСТИТУТЕ**

---

**БУХАРСКИЙ ИНЖЕНЕРНО-ТЕХНОЛОГИЧЕСКИЙ ИНСТИТУТ**

**МУЗАФФАРОВ ФИРДАВС ФУЗАЙЛ УГЛИ**

**ПОВЫШЕНИЕ ЭФФЕКТИВНОСТИ РАБОТЫ ВЕРТИКАЛЬНО-  
ОСЕВОЙ ВЕТРОЭНЕРГЕТИЧЕСКОЙ УСТАНОВКИ**

**05.05.06 – Энергоустановки на основе возобновляемых видов энергии**

**АВТОРЕФЕРАТ ДИССЕРТАЦИИ ДОКТОРА ФИЛОСОФИИ (PhD)  
ПО ТЕХНИЧЕСКИМ НАУКАМ.**

**Карши - 2024**

Тема диссертации на соискание ученой степени доктора философии (PhD) технических наук зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан за номером В2023.2.PhD/Г2898.

Диссертация выполнена в Бухарском инженерно-технологическом институте.  
Автореферат диссертации доступен на трех языках (узбекский, русский, английский (резюме)) на сайте Ученого совета ([www.qmii.uz](http://www.qmii.uz)) и на информационно-образовательном портале «Ziyounet» ([www.ziyounet.uz](http://www.ziyounet.uz)).

**Научный руководитель:**

**Садуллаев Насулло Нематович**  
доктор технических наук, профессор

**Официальные оппоненты:**

**Тоиров Олимжон Зувурович**  
доктор технических наук, профессор

**Хужакулов Сайдулла Мирзаевич**  
доктор философии по техническим наукам, доцент

**Ведущая организация:**

**Ферганский политехнический институт**

Защита состоится «6» 04 2024 года в 10<sup>00</sup> часов на заседании Научного совета PhD.03/30.09.2020.Т.111.03 при Каршинском инженерно-экономическом институте. Адрес: 180100, г. Карши, проспект Мустакиллик, 225. Конференц-зал Каршинского инженерно-экономического института. Тел/факс: (75) 224-02-89/224-13-95, e-mail: [kiei\\_info@edu.uz](mailto:kiei_info@edu.uz).

С диссертацией можно ознакомиться в информационно-ресурсном центре Каршинского инженерно-экономического института (зарегистрирована за № 99). Адрес: 180100, г. Карши, проспект Мустакиллик, дом 225. Каршинский инженерно-экономический институт. Тел/факс: (75) 224-02-89.

Автореферат диссертации разослан «25» 03 2024 года.  
(протокол рассылки № 20 от «25» 03 2024 г.)



**Г.Н. Узakov**

Председатель научного совета по присуждению  
ученых степеней, д.т.н., проф.

**Х.А. Давлонов**

Зачинный секретарь научного совета по  
присуждению ученых степеней, д.ф.т.н.

**Б. Уришев**

Председатель научного семинара при  
научном совете по присуждению  
ученых степеней, д.т.н., проф.

## ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

**Актуальность и востребованность темы диссертации.** Увеличение потребности в электроэнергии в мире требует широкого использования возобновляемых источников энергии. В 2024 году на долю возобновляемых источников энергии приходится 33,5 процента электроэнергии, вырабатываемой во всем мире, в том числе, доля ветряных электростанций составляет 8,6 процента<sup>1</sup>. В частности, использование источников энергии ветра становится приоритетным направлением обеспечения электроэнергией автономных потребителей малой мощности, расположенных вдали от централизованного электроснабжения. Согласно Концепции развития ветроэнергетики Международного агентства по возобновляемым источникам энергии, к 2050 году ветроэнергетика будет составлять 35% мировой потребности в энергии<sup>2</sup>. В этом направлении, в частности, особое внимание уделяется проблемам разработки оптимальных конструкций ветряных турбин с вертикальной осью, увеличения крутящего момента, определения аэродинамических параметров, оценки энергетических показателей и повышения коэффициента использования энергии ветра на основе моделирования.

В мире проводятся научные исследования по повышению эффективности использования низкоскоростных ветровых потоков, разработке ветроэнергетических установок с вертикальной осью, обоснованию их энергетических, аэродинамических и конструктивных параметров, а также повышению их производительности. В связи с этим большое внимание уделяется разработке ветроэнергетических установок с вертикальной осью, адаптированных к климатическим условиям регионов со слабыми ветровыми потоками, анализу конструктивных и режимных параметров, определению оптимальных параметров турбины для повышения эффективности ветроэнергетических установок, а также эксплуатации усовершенствованных установок.

В процессе реформирования энергетической отрасли нашей республики особо актуальными являются вопросы улучшения энергоснабжения и решения существующих проблем в отрасли. В этом направлении ведется системная работа по расширению возможностей использования ветроэнергетики, в том числе по оценке технического и валового потенциала ветроэнергетики в регионах, и разработке, исходя из этого, ветроэнергетических установок. В постановлении Президента Республики Узбекистан № ПП-57 от 16 февраля 2023 года «О мерах по ускорению внедрения возобновляемых источников энергии и энергосберегающих технологий в 2023 году» определены задачи по «...введению в эксплуатацию в 2023 году крупных солнечных и ветровых электростанций мощностью 2100 МВт...». В процессе реализации этих задач особое значение имеет создание вертикально-осевой ветроэнергетической

---

<sup>1</sup> <https://www.iea.org/energy-system/renewables>

<sup>2</sup> <https://www.irena.org/publications/2019/Oct/Future-of-wind>

установки и разработка соответствующих научно-технических решений с учетом климатических условий и потенциала ветроэнергетики региона.

Данная диссертационная работа в определенной мере служит реализации задач, сформулированных в Законе Республики Узбекистан № ЗРУ-539 от 21 мая 2019 года «Об использовании возобновляемых источников энергии», указе Президента Республики Узбекистан от 9 сентября 2022 года № УП-220 «О дополнительных мерах по внедрению энергосберегающих технологий и развитию возобновляемых источников энергии малой мощности», постановлениях Президента Республики Узбекистан от 28 апреля 2018 года ПП-3687 «О дополнительных мерах по реализации инвестиционных проектов в области возобновляемых источников энергии», от 22 августа 2019 года № ПП-4422 «Об ускоренных мерах по повышению энергоэффективности отраслей экономики и социальной сферы, внедрению энергосберегающих технологий и развитию возобновляемых источников энергии» и других нормативных документах, регулирующих данный вид деятельности.

**Соответствие исследований приоритетным направлениям развития науки и технологий республики.** Исследования в рамках данной диссертационной работы выполнены в соответствии с приоритетным направлением развития науки и технологий республики IV. «Развитие методов использования возобновляемых источников энергии, создание технологий и устройств на основе нанотехнологий, фотоники и других современных передовых технологий».

**Степень изученности проблемы.** В связи с тем, что использование энергии ветра приобрело особую актуальность среди возобновляемых источников энергии, во всем мире, в том числе и в нашей республике, проведено множество научных исследований в этой сфере. J.V. Akwa, A.K.Ravi, Marco Casini, S. Brusca, J.M.Darrius, R. Ansaf, Ch. Shi, Y. Ch. Miao, S. Savonius, E. M. Фатаев, Е. В. Соломин и другие зарубежные ученые, а также такие отечественные ученые, как академик К.Р.Аллаев, академик Р.А.Захидов, У.А.Таджиев, О.З.Тоиров, У.Г.Дехканов, А.Б.Сафаров, Ш.Н. Нематов провели эффективные научные исследования по вопросам улучшения технических и энергетических параметров ветроэнергетических установок и, в частности, ветротурбин на основе возобновляемых источников энергии. В ходе данных исследований достигнуты существенные результаты по созданию энергоэффективных, механически прочных и пригодных для работы в соответствующих климатических условиях ветроэнергетических установок различных конструкций. Тем не менее, проведенных научных исследований по изучению ветроэнергетических установок с вертикальной осью, позволяющих повысить эффективность использования низкопотенциальных ветровых ресурсов, недостаточно.

